ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

TILSHUNOSLIK FANINING FANLAR TIZIMIDAGI O'RNI VA UNING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI

Zaynobiddinova Mubina Asliddin qizi
Andijon davlat chet tillari instituti
Xorijiy filologiya va turizm fakulteti
Filologiya va tillarni
o'qitish: arab tili yo'nalishi
103-guruh talabasi

Toshlonova S.
Ilmiy maslahatchi:
https://doi.org/10.5281/zenodo.24208495

ANNOTATSIYA: Maqolada tilshunoslik fanining fanlar tizimida tutgan o'rni, xususan, tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi, til va tafakkur, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar va tilning jamiyatdagi o'rnini tahlil qilinadi. Tilning ichki tuzilishi- tilning tasnifi, uni tahlil qilish usullari va shu kabi masalalar o'rganiladi. Shuningdek, tilning insoniyat hayotidagi ahamiyati va uni ilmiy jihatdan o'rganish masalalari bayon etiladi.

KALIT SO'ZLAR: tilshunoslik, jamiyat, tafakkur, psixologiya, fanlararo aloqa, grammatika, morfologiya, fonetika, til oilalari, falsafa.

АННОТАЦИЯ: В статье рассматривается место языкознания в системе наук, в частности происхождение и развитие языка, взаимосвязь языка и мышления, отношения между языком и обществом, а также роль языка в обществе. Изучаются внутренняя структура языка, классификация языков, методы их анализа и другие связанные с этим вопросы. Кроме того, рассматриваются значение языка в жизни человечества и вопросы его научного изучения.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: языкознание, общество, мышление, психология, междисциплинарная связь, грамматика, морфология, фонетика, языковые семьи, философия.

Tilshunoslik (lingvistika: grekcha lingua – «til», logos – «fan») murakkab va ko'p qirrali, tilni boshqa ijtimoiy fanlar bilan uzviy alo- qadorlikda ilmiy va amaliy jihatdan o'rganuvchi, tilshunoslikning asosiy masalalarini, tilning paydo bo'lishi va til taraqqiyotidagi umumiy qonuniyatlarni, til va nutq xususiyatlarini tahlil etuvchi fandir.

Til jamiyat uchun xizmat qiladi, jamiyat a'zolari muloqotini ta'- minlaydi. Til jamiyat tarixini o'zida aks ettiruvchi vosita bo'lib, inson- ning ma'naviy va ma'rifiy shakllanishi, rivojlanishida belgilovchi aha- miyatga ega. Til, uning amaliy ifodasi bo'lgan nutq inson tafakkuri, ruhiyati, madaniyati, urf-odati va shaxsiy kamoloti bilan bog'liqdir. Tilshunoslik fani umumiy va xususiy xarakterga egadir. Tilshu- noslikning umumiy va xususiy tilshunoslik, nazariy tilshunoslik, amaliy tilshunoslik kabi qator ko'rinishlari mavjud bo'lib, til va nutqni turli aspektlarda talqin qiladi. Umumiy tilshunoslik jahon tillaridagi fonetik, fonologik, grammatik (morfologik va sintaktik), leksik-seman- tik, stilistik jihatlarni

ilmiy asosda o‘rganadi. Bu xususiyatlarning muayyan bir tildagi izohi (masalan, o‘zbek tili yoki boshqa tillarning belgilari)ni xususiy tilshunoslik o‘rganadi. Nazariy tilshunoslik sohaning nazariy masalalari, til va nutq birliklariga doir qarashlar, til birliklari o‘rtasidagi munosabatlar haqida bahs yuritadi. Jamiyatning amaliy ehtiyojlarini qondiradigan tilshunoslik sohasi amaliy tilshunoslik deb ataladi va til haqidagi fanning tarqalish doirasini kengaytiradi.

Darhaqiqat, tilshunoslikda mavjud bo‘lgan har bir nazariya, avvalo, tilni qanday tushunishga asoslanadi. Tilni qanday tushunish til haqidagi nazariyani yaratishda ahamiyatlidir. Tilshunoslik fanining obyekti, predmeti va tilni ilmiy o‘rganish metodlari kabi masalalar ma’lum daraja- da tilni qanday tushunishga bog‘liqdir. Tilshunoslik tarixida tilni turlicha ta’riflash fanning predmetini ham turlicha tasavvur qilishga sabab bo‘ldi. Shuning uchun bu masalaning tilshunoslik tarixi asosiy bosqichlarida qan- day hal etilganligini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Tilga bo‘lgan qiziqish eramizdan avvalgi V asrlarda paydo bo‘l- gan. Tilshunoslik qadimgi Hindiston, qadimgi Yunoniston va Rim, Misr, Mesopotamiya, Xitoy, Movarounnahr, Arabiston yarim oroli va h.k. mintaqalarda rivojlangan. Tilshunoslik fani uzoq vaqt mobaynida falsafa tarkibida rivojlan- gan. Antik davrda va O‘rta asrlarda Yevropada tilshunoslik falsafaning ajralmas qismi bo‘lgani, falsafiy g‘oyalarning ustunligi, tilshunoslik- ning hali alohida soha bo‘lib, ajralib chiqmaganligidan dalolat beradi. Tilshunoslik taraqqiyoti jarayonida alohida tillar yoki til guruhlari em- pirik nuqtayi nazardan o‘rganilgan. Ba’zi bosqichlarda muayyan tillar (Yevropada lotin, Yaqin va O‘rta Sharqda arab) namuna, etalon si- fatida qaralgan.

Tilni tilshunoslikdan tashqari falsafa, mantiq kabi boshqa fanlar ham o'rganadi. Ma’lumki, tafakkurga daxldor masalalar mantiq ilmining mavzusidir. Shu tufayli mantiqchilar tafakkur qonuniyatlari bilan birga, fikming tilda aks etishini o‘rganmasliklari mumkin emas. Undan tashqari, til va tafakkur bir-biri bilan uzviy bog‘langan, biri - ikkinchisisiz yashay olmaydigan hodisadir, tafakkur tilda yashaydi, har qanday nutq asosida esa tafakkur yotadi. Mantiq tilni ana shu yo‘nalishdao‘rganadi. Tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liqligi tufayli til sotsiologlar tomonidan ham o‘rganiladi. Jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida sodir bo‘lgan voqea va hodisalar tilda aks etmay qolmaydi. Shunga ko‘ra, tarixchilar til tarixiga, tilshunoslar esa o‘z navbatida tarix faniga murojaat qilmay ilojlari yo‘q. Demak, tilshunoslar tilga oid masalalarni hal qilishda etnografiya, psixologiya, antropologiya, matematika, geografiya, fizika va boshqa fanlarga oid materiallar va xulosalardan foydalanadilar. Shunday qilib, til faqat tilshunoslik emas, balki boshqa fanlar uchun ham o‘rganish sohasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu sohadan har bir fan o‘z mavzusini ajratib oladi. 0 ‘rganilish sohasini ajratib olish nuqtai nazaridan tilshunoslik ikki turga: mikrolingvistika fkichik tilshunoslik) va makrolingvistika (katta tilshunoslik)ga ajratiladi. Mikrolingvistika - tilning faqat ichki, ya’ni fonetik, leksik va grammatik tuzilishini, makrolingvistika esa, tilni boshqa fanlar bilan qo’shilib o’rganadi.

Makrolingvistika -tilning paydo bo’lishi va uning taraqqiyot qonunlari, tilning ijtimoiy mohiyatini: uning tafakkur bilan munosabatini, til va boshqa signal sistemalari orasidagi o‘xshashlik va farqlami, tilning tarqalishi - idialekt (shaxsiy sheva), yangi til masalalari kabi muammolami o‘z ichiga oladi. Hozirgi kunda til nima degan savolga olimlar turlicha javob beradilar.Xususan: - «Til tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar majmuidir» (F.de Sossyur). - «Til - odam ongining ishtirokisiz, uning tashqi dunyoga nisbatan bo’lganmexanik harakatidir». - «Til fikrni ifoda qilishga mo ‘Ijallangan, talaffuz qilinadigan, chegaralangan toyushlar majmuidir» (B.Grosse), degan fikrlar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Nurmonov A.** Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2002. – 180 b.
2. **Abduazizov A.** Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010. – 176 b.
3. **Sayfullayev A., Mengliyev B., Boqiyeva G. va boshqalar.** Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006. – 232 b.
4. **Hojiyev A.** Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2002. – 168 b.
5. **Mahmudov N.** Tilshunoslikning dolzarb masalalari. – Toshkent: Fan, 2009. – 216 b.
6. **Jamolxonov H.** Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – 352 b.
7. **Rahmatullayev Sh.** Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 220 b.
8. **Yusupov O.** Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2007. – 190 b.